



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-yil 3-soni

VOLUME 4 / ISSUE 3 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.3.



ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT
YURIDIK UNIVERSITETI**

"Yurisprudensiya"

"Юриспруденция" – "Jurisprudence" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Olyi ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Olyi attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Muharrirlar:

Sh. Jahonov, Y. Yarmolik, E. Mustafayev, K. Abdulyanova, Y. Mahmudov, M. Sharifova

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387

Jurnal 24.06.2024-yilda bosmaxonaga topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.
Shartli 10,2 b.t. Adadi: 100.
Buyurtma raqami: 86.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

J. Allayorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarmasi boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

MAS'UL MUHARRIR

N. Ramazonov – Toshkent davlat yuridik universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

J. Blum – Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori (Boston, AQSH)

M. Vishovatiy – Gdansk universiteti professori (Gdansk, Polsha)

A. Hoshimxonov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

M. Axmedshayeva – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

X. Xayitov – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

I. To'raboyev – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Toshkent, O'zbekiston)

S. Xolboyev – O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi dotsenti, yuridik fanlar nomzodi, (Toshkent, O'zbekiston)

N. Raxmonkulova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

J. Ne'matov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

M. Kurbanov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Toshkent, O'zbekiston)

R. Kuchkarov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi (Toshkent, O'zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция» – *Yurisprudensiya* – *Jurisprudence* зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Редакторы:

Ш. Жахонов, Е. Ярмолик,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,
Й. Махмудов, М. Шарифова

Корректор:

С. Расулова

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайлгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: jurisprudence.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz
Подписной индекс: 1387

Журнал передан в типографию 24.06.2024.
Формат бумаги: А4.
Усл. п. л. 10,2. Тираж: 100 экз.
Номер заказа: 86.

Отпечатано в типографии ТГЮУ.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Б. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Ж. Аллаёров – доктор философии по юридическим наукам, доцент, начальник управления по науке Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Н. Рамазонов – доктор философии по филологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Дж. Блум – доктор права, профессор Школы права колледжа Бостона (Бостон, США)

М. Вишоватый – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Хошимхонов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Ахмедшаева – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Х. Хаитов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

И. Турабоев – доктор философии по юридическим наукам, и. о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

С. Холбоев – кандидат юридических наук, доцент Высшей школы судей при Верховном судейском совете Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Н. Рахмонкулова – доктор юридических наук, доцент Университета мировой экономики и дипломатии (Ташкент, Узбекистан)

З. Эсанова – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Курбанов – доктор философии по юридическим наукам, доцент (Ташкент, Узбекистан)

Р. Кучкаров – кандидат филологических наук, и. о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” legal scientific and practical journal was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020 with certificate No. 1140.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of journal materials are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Editors:

Sh. Jakhonov, Y. Yarmolik, E. Mustafaev,
K. Abdullaeva, Y. Makhmudov,
M. Sharifova

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Editorial office address::

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Subscription index: 1385.

The journal is submitted to the Printing house on 24.06.2024.
Paper size: A4.
Cond. p.p. 10,2. Unit: 100.
Order: 86.

Published in Printing house of TSUL.

© Tashkent State University of Law

CHIEF EDITOR

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

J. Allayorov – Head of the Scientific Department of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences, Associate Professor

EXECUTIVE EDITOR

N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law (Boston, USA)

M. Vishovatiy – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk, Poland)

A. Khoshimxonov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Axmedshaeva – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

X. Xayitov – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

I. Turaboev – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

S. Xolboev – Associate Professor of the Supreme School of Judges under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

N. Raxmonkulova – Associate Professor of the University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Z. Esanova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Ne'matov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Kurbanov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

R. Kuchkarov – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Philological Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 8 **NARZIYEV OTABEK SADIYEVICH, IGAMBERDIYEVA XURSHIDA XISLATILLAYEVNA**
O'zbekistonda vechur fondlarni tartibga solishda bank faoliyatidagi qoidalarni qo'llash
- 17 **EGAMBERDIYEV EDUARD XAJIBAYEVICH, SHAIMARDANOVA DILAFRUZ DILMURATOVNA**
Eksklyuziv blokcheyn va merosxo'rlik huquqi: raqamli merosni boshqarishda zamonaviy yondashuvlar

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 26 **KARIMOVA MADINA MIRZADJANOVNA**
Notarial jarayon tushunchasi va uning xususiyatlari

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

- 34 **XUDOYQULOVA DILOROM XOLOVNA**
Mamlakatimizda aholining ekologik savodxonligini rivojlantirishda ekologik-huquqiy targ'ibotning o'rni va ahamiyati

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 43 **XAYDAROV SHUXRATJON DJUMAYEVICH**
Insomni uning a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash jinoyati tushunchasi hamda belgilari
- 55 **XUDAYKULOV FERUZBEK XURRAMOVICH**
Jinoyat huquqida ijtimoiy xavfli harakat tushunchasi, mohiyati va uning belgilari

13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI (SOHALAR BO'YICHA)

- 66 **ZIYAMUXAMEDOVA SHAHNOZA TOLKUNOVNA**
-La +-sh va -lash affiksli so'zshakllar orasidagi omonimiya

YURIDIK FANLARNI O'QITISH

- 77 **ABDURASULOVA QUMRINISA RAIMKULOVNA, UMIRZAKOV BEGZOD ATABOYEVICH**
Kriminologiya fanining vujudga kelishi, dolzarb vazifalari va rivojlanish istiqbollari

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

8 НАРЗИЕВ ОТАБЕК САЬДИЕВИЧ, ИГАМБЕРДИЕВА ХУРШИДА ХИСЛАТИЛЛАЕВНА

Регулирование венчурных фондов аналогично банковской деятельности в Узбекистане

17 ЭГАМБЕРДИЕВ ЭДУАРД ХАЖИБАЕВИЧ, ШАЙМАРДАНОВА ДИЛАФРУЗ ДИЛМУРАТОВНА

Эксклюзивный блокчейн и наследственное право: современные подходы к управлению цифровым наследством

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ТРЕТЕЙСКИЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ

26 КАРИМОВА МАДИНА МИРЗАДЖАНОВНА

Понятие нотариального процесса и его характерные черты

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

34 ХУДОЙКУЛОВА ДИЛОРОМ ХОЛОВНА

Роль и значение экологической правовой пропаганды в развитии экологической информированности населения в нашей стране

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. КРИМИНОЛОГИЯ. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

43 ХАЙДАРОВ ШУХРАТЖОН ДЖУМАЕВИЧ

Определение и характеристика преступления принуждения человека к согласию на изъятие у него органов и (или) тканей для трансплантации

55 ХУДАЙКУЛОВ ФЕРУЗБЕК ХУРРАМОВИЧ

Понятие, сущность и признаки общественно опасного деяния в уголовном праве

13.00.02 – ТЕОРИЯ И МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ (ПО ОТРАСЛЯМ)

66 ЗИЯМУХАМЕДОВА ШАХНОЗА ТОЛКУНОВНА

Омонимия между словоформами с аффиксами -la + -sh и -lash

ПРЕПОДАВАНИЕ ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

77 АБДУРАСУЛОВА КУМРИНИСА РАЙМКУЛОВНА, УМИРЗАКОВ БЕГЗОД АТАБОЕВИЧ

Возникновение, актуальные задачи и перспективы развития науки криминологии

CONTENTS

12.00.03 – CIVIL LAW. ENTREPRENEURSHIP LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 8 **NARZIEV OTABEK SADIEVICH, IGAMBERDIEVA KHURSHIDA KHISLATILLAEVNA**

Applying banking activity rules to the regulation of venture funds in Uzbekistan

- 17 **EGAMBERDIEV EDUARD KHAJIBAYEVICH, SHAIMARDANOVA DILAFRUZ DILMURATOVNA**

Exclusive blockchain and inheritance law: modern approaches to digital inheritance management

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION AND MEDIATION.

- 26 **KARIMOVA MADINA MIRZADJANOVNA**

The concept of notarial process and its characteristic features

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

- 34 **KHUDOYKULOVA DILOROM KHOLOVNA**

The role and significance of ecological legal propaganda in developing the ecological literacy of the population in our country

12.00.08 – CRIMINAL LAW, PREVENTION OF OFFENSES. CRIMINOLOGY. CRIMINAL PROCEDURAL LAW

- 43 **SHUKHRATJON JUMAEVICH KHAYDAROV**

Definition and characteristics of the crime of forcing a person to consent to obtaining his organs and (or) tissue for transplantation

- 55 **KHUDAYKULOV FERUZBEK KHURRAMOVICH**

The concept, nature and its characteristics of a socially dangerous action in criminal law

13.00.02 – THEORY AND METHODOLOGY OF EDUCATION AND UPBRINGING (BY FIELDS)

- 66 **ZIYAMUKHAMEDOVA SHAKHNOZA TOLKUNOVNA**

Homonymy between the word forms with affixes -la + -sh and -lash

TEACHING LEGAL SCIENCES

- 77 **ABDURASULOVA KUMRINISA RAIMKULOVNA, UMIRZAKOV BEGZOD ATABOEVICH**

The emergence of the science of criminology, actual tasks and development prospects

Kelib tushgan / Получено / Received: 14.05.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 31.05.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.06.2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.3./XPWI5477

UDC: 349.6+502.3/504(045)(575.1)

MAMLAKATIMIZDA AHOLINING EKOLOGIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK-HUQUQIY TARG'IBOTNING O'RNI VA AHAMIYATI

Xudoyqulova Dilorom Xolovna,
Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumani
adliya bo'limi bosh maslahatchisi
ORCID: 0009-0004-5028-0458
e-mail: xudaykulova77@umail.uz

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasida ekologik muvozanatni yaxshilashga oid chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirishda ekologik huquqiy targ'ibotning o'rni va ahamiyati o'rganilgan. Shuningdek, aholining ekologik savodxonligini oshirishda ekologik huquqiy targ'ibotni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-huquqiy tushunchalar asosida O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy bazasi hamda balki xorijiy davlatlarning doktrinal pozitsiyalari tahlil qilgan. Tahlil yakunida esa iqlim o'zgarishi sharoitida aholining ko'chat ekish va hududlarni ko'kalamzorlashtirishga qiziqishini oshirish taklif qilingan. Ekologik huquqiy targ'ibot fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, mamlakatimizda ekologik vaziyatning yomonlashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday huquqbazarliklarga qarshi kurashishga qaratilgan. Maqolada ekologik madaniyatni shakllantirish muammolarini hal etishga tadbirkorlar, jamoat va boshqa nodavlat notijorat birlashmalarini ham jalg etish, shuningdek, ekologik muammolarni hal etishda tarixiy tajribadan foydalanish muhimligi asoslab berilgan. Aholi o'rtasida atrof-muhitni muhofaza qilish, davlat rivoji va aholining sog'lom turmush tarzi uchun qonunlarga hurmat tuyg'ularini shakllantirishga adliya organlari ham targ'ibot tadbirlari orqali katta hissa qo'shayotgani e'tirof etilgan. Muallif ekologik huquqiy targ'ibotning umumiy xususiyatlarini tahlil qilib, ekologik savodxonlikni oshirishda huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati va ilmiy ishlarda qo'llanishi mumkin bo'lgan tavsiyalar ishlab chiqqan.

Kalit so'zlar: adliya organlari, ekologiya, huquqiy targ'ibot, aholi, ekologik savodxonlikni takomillashtirish, madaniyat, jamoat va boshqa nodavlat notijorat birlashmalar.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПРАВОВОЙ ПРОПАГАНДЫ В РАЗВИТИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМИРОВАННОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В НАШЕЙ СТРАНЕ

Худойкулова Дилором Холовна,
главный советник управления
юстиции Кумкурганского района
Сурхандарьинской области

Аннотация. В статье рассматриваются роль и значение экологической правовой пропаганды в реализации мер по улучшению экологического баланса в Республике Узбекистан и

повышению экологической культуры населения. Автор анализирует не только нормативно-правовую базу Республики Узбекистан, но и доктринальные позиции зарубежных государств на основе научно-правовых концепций, направленных на совершенствование экологической правовой пропаганды в повышении экологической грамотности населения. В заключение анализа предлагается повысить интерес населения к посадке саженцев и озеленению территорий в условиях изменения климата. Экологическая правовая пропаганда направлена на повышение правосознания и культуры граждан, охрану окружающей среды, борьбу с любыми правонарушениями, которые могут привести к ухудшению экологической ситуации в нашей стране. В статье обосновывается важность привлечения предпринимателей, общественных и других некоммерческих объединений к решению задач формирования экологической культуры, а также использования исторического опыта в решении экологических проблем. Признано, что органы правосудия также вносят значительный вклад в формирование у населения чувства уважения к законам для защиты окружающей среды, развития государства и здорового образа жизни населения посредством пропагандистских мероприятий. Автор проанализировал общие черты экологической правовой пропаганды и разработал рекомендации, которые могут быть применены в деятельности правоохранительных органов и научной работе по повышению экологической грамотности.

Ключевые слова: органы правосудия, экология, правовая пропаганда, население, повышение экологической грамотности, культура, общественные и другие некоммерческие объединения.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF ECOLOGICAL LEGAL PROPAGANDA IN DEVELOPING THE ECOLOGICAL LITERACY OF THE POPULATION IN OUR COUNTRY

Khudoykulova Dilorom Kholovna,

Chief Adviser of the Department of Justice in Kumkurgan District,
Surkhandarya Region

Abstract. The article examines the role and importance of ecological legal propaganda in improving the ecological balance and enhancing the ecological culture of the population in the Republic of Uzbekistan. Also, on the basis of scientific and legal concepts aimed at improving ecological legal promotion in increasing the ecological literacy of the population, the regulatory and legal framework of the Republic of Uzbekistan and the doctrinal positions of foreign countries were analyzed. The analysis concludes with a proposal to increase public interest in planting trees and greening areas in the context of climate change. Ecological legal propaganda is aimed at raising citizens' legal awareness and culture, protecting the environment, and combating any violations that could lead to the deterioration of the ecological situation in our country. The article substantiates the importance of involving entrepreneurs, the public, and other non-governmental non-profit organizations in solving the problems of forming ecological culture, as well as using historical experience in solving ecological problems. It is noted that the justice authorities also contribute significantly to the formation of respect for laws among the population through propaganda activities to protect the environment, promote the development of the state, and ensure a healthy lifestyle for the population. The author analyzes the general characteristics of ecological legal propaganda and has developed recommendations for its application in law enforcement activities and scientific works to enhance ecological literacy.

Keywords: justice authorities, ecology, legal propaganda, population, improvement of ecological literacy, culture, public and other non-governmental non-profit organizations.

Kirish

Ekologik vaziyatning buzilib borishi bu-gungi globallashuv jarayonida dunyoning

eng dolzarb muammolaridan biridir. Bu muammolarni hal qilish uchun, eng avvalo, odamlarning atrof-muhitni muhofaza qilishga

munosabatini ekologik-huquqiy targ'ibot yo'li bilan o'zgartirish zarur.

Internet va ijtimoiy tarmoqlarda ekologik targ'ibot, ekologik dunyoqarashni shakllantirish, inson tabiat bilan o'zaro uyg'un munosabatda bo'lishi zarurligini anglashni ta'minlaydigan faktlar, qarashlar, g'oyalarni tanlab olish, ularni ommaviy axborot vositalari hamda innovatsion-kommunikativ vositalar (gazeta, radio, televide niye, jurnallar, ommaviy ma'ruzalar va boshqalar) orqali keng targ'ib etish bugungi adliya organlarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ekologik huquqiy targ'ibot tadbirlaridan asosiy maqsad esa fuqarolarning atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatishiga yo'l qo'ymaslik, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, chiqindilarni qayta ishslash, muqobil energiya manbalaridan to'g'ri foydalanishga jalb etishdir.

Mamlakatimizda ekologik vaziyatni yaxshilashga doir turli chora-tadbirva dasturlar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ular hali yetarlicha samara bermagani ayon bo'lib qolmoqda.

Ekologik huquqiy targ'ibot tabiiy resurslardan oqilona foydalanish muammolari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liqligini aholiga yetkazish, atrof-muhitni asrash orqali salomatlikka ta'sir qiluvchi ekologik muammolarning oldini olish va kelajak avlodga qulay muhitni yaratish kabilarni o'z ichiga oladi.

"Fuqarolar muammoning mavjudligi va ularga ta'sir etishiga ishonch hosil qilmasa, ularni ekologiya va atrof-muhit muammo sini hal qilishga undash foydasizdir", – degan edi ekolog olim V.E. Boreyko [1, 302-b.].

V.Y. Aleksandrov esa "Avtomobil transportining ekologik muammolari" kitobida: "Atmosfera havosining ifloslanish darajasini pasaytirish maqsadida shahar ko'chalarida transportni to'g'ri tartibga solish uchun, birinchi navbatda, shaharning tuzilishi – ishlab chiqarish va turar joy massivlari, dam olish maskanlari hamda madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish markazlarining joylashishini hi-

sobga olish zarurligi targ'ibot tadbirlarida inobatga olinishi kerak", – deb ta'kidlagan. [2, 113-b.]. Yana bir ekolog I.V. Kryaj "Kundalik ekologik g'oyalarni psixosemantik o'rganish" asarida: "Inson va tabiatga qarshi emas, balki u bilan teng munosabatda bo'ladigan ijtimoiy ekologik ongni shakllantirish bugungi kunning vazifalaridan biridir", – degan fikrni ilgari suradi [3, 65-b.].

Ekolog olim J.T. Xolmo'minov: "Ekologik huquqiy targ'ibot ekologik tahiddilarning oldini olishda muhim jarayondir", – deya ekologik huquqiy targ'ibotning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi [4? 91-b.].

Mazkur sohaning yana bir vakili N. Gubanov "Global muammolar orasida insoniyat uchun eng katta xavf harbiy va ekologik muammolardir" – degan fikrni aytadi. [5, 166–180-b.].

Bugungi kunda ekologik targ'ibot davr talabi ekanini ushbu fikrlardan ham yanada teranroq anglash mumkin.

Material va metodlar

Ushbu maqolada huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanildi hamda qiyosiy-huquqiy usul, tahlil, sintez, kuza tish, umumlashtirish, ekologik-huquqiy targ'ibotni takomillashtirish metodlari qo'llandi. Umumlashtirilgan fikrlar asosida takliflar ishlab chiqildi. Shuningdek, adliya organlarning aholiga huquqiy ko'mak ko'rsatish maqsadida "fuqaro – mahalla – adliya" tizimini joriy etish choralarini takomillashtirish, fuqarolarga birlamchi bepul yuridik yordam ko'rsatish va davlat organlari hamda mahallalarda yagona huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berildi.

Tadqiqot natijalari

Adliya organlari olib borayotgan ekologik huquqiy targ'ibot ishlarini yo'lga qo'yishda samaradorlikni oshirish uchun, avvalo, uning maqsadlarini oydinlashtirib olish zarur.

Targ'ibot insonlar hayotida qadim zamon lardan beri keng ishlatiladigan usul bo'lib, jumladan, jangchi yunonlar va rimliklar undan mukammal darajada foydalanishgan.

Jahon urushlarida targ'ibot jangda tobora ko'proq g'alaba qozonish, dengiz flotlarini qurolsizlantirish, xalqlarni ruhiy tushkunlikka tushirish yoki jangovarlik ruhini ko'tarish hamda neytral mamlakatlarni urushga jalg etishdan boshlangan ekan. Ayni paytda ekologik vaziyat og'irlashib borayotgani sababli ekologik-huquqiy targ'ibot ishlarini olib borish mamlakat kelajagi uchun kurashdir [6, 9-11-b.].

Hozirgi kunda ekologik-huquqiy targ'ibot adliya organlari tomonidan og'zaki va ko'r-gazmali tarzda, shuningdek, ommaviy axborot vositalari, jumladan, "Telegram", "Instagram" hamda "Facebook" ijtimoiy tarmoqlari orqali ham olib borilib, aholining keng qatlami qamrab olinmoqda. Targ'ibotlarning asosiy mavzusi fuqarolardagi ekologik huquqiy bilimlarni oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish, ekologiyani asrash bo'yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirishdan iborat.

Ekologik-huquqiy targ'ibot va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish muammolarini jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanshi bilan belgilanadi, shuningdek, u sog'liqni saqlash, hozirgi va keljak avlodlarda aholining hayoti hamda tabiiy ko'payishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalarini faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra, "...qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini "Respublika – viloyat – tuman – mahalla" prinsipi bo'yicha tumanlar tuzilmalaridagi aholi va ijrochilarga yetkazish, huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlari bilan birgalikda aholining huquqiy savod-sizligiga barham berish borasida huquqiy targ'ibot chora-tadbirlarini amalga oshirish" tuman (shahar) adliya bo'limlarining asosiy vazifalaridan biri etib belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-mayda yangi qabul qilingan "Ma'muriy islohotlar doirasi-da adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida"gi PF-80-sonli Farmoniga asosan, Adliya vazirligining qo'shimcha 4 ta yangi faoliyat yo'nalishi belgilangan. Mazkur yo'nalishlar dan biri aholining kundalik hayotida uchraydigan huquqiy muammolarni aniqlash, ularni tahlil qilish va bartaraf etish, joylarda aniqlangan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qonunchilik hujjatlari loyihibarini ishlab chiqish, fuqarolarga huquqiy masalalar bo'yicha birlamchi bepul yuridik yordam ko'rsatish hamda davlat organlari va mahallalarda yagona huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirishda metodik yordam ko'r-satib borishdan iborat.

Ushbu farmon bilan tuman (shahar) adliya bo'limlariga 6 ta yangi vazifa yuklatildi. Aholi muammolarini o'rganish va hal etish uchun har oyda mahallalarda "Adliya kuni" tadbirlari va "Huquqiy ko'mak" aksiyalari o't-kazish uyma-uy yurish orqali fuqarolarning kundalik hayotidagi huquqiy muammolarni bartaraf etish bo'yicha qonunchilikka takliflar ishlab chiqish; "Online-mahalla" platformasi orqali huquqiy masalalarga oid muammolarni hal etib borish; aholiga bepul birlamchi yuridik yordam ko'rsatilishini ta'minlash va ularga huquqiy tushuntirishlar berish, yoshlar, ayollar, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni qonunchilik hujjatlarida belgilangan imtizolar haqida xabardor qilish va tuman (shahar) tashkilotlari hamda mahalla idoralariga yagona huquqni qo'llash amaliyoti bo'yicha metodik yordam ko'rsatib borish shular jumlasidan. Aholining huquqiy ongini oshirish, qonunchilik hujjatlarini ijrochilarga yetkazishni samarali tashkil etish maqsadida davlat organlari va tashkilotlariga huquqiy axborot berish bo'yicha Yagona huquqiy axborot almashish tizimini ishga tushirish belgilangan. Mahallalarda haftaning har chorshanbasida

“Huquqiy targ’ibot kuni” o’tkazilishi yo’lga qo’yiladi. Ushbu tadbirdan maqsad, “Mamlakat kelajagi – qonunga itoatkor va huquqbuzarlikka toqatsiz yoshlar bilan” g’oyasi asosida yoshlarda turli salbiy omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, qonunlarga hurmat, mamlakatga daxldorlik hamda vatanparvarlik hissini kuchaytirishdir.

Adliya xodimlari yoshlarning ekologik-huquqiy savodxonligini oshirishda og’zaki va jonli, yuzma-yuz olib boriladigan (ma’ruza, xabar, suhbat, muhokama), ko’rgazmali (yo’ma ma’ruza, maqola, plakat, buklet, flayer), ommaviy axborot vositalari (televideniye, radio, gazeta, slayd va videoroliklar) hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali olib boriladigan targ’ibot usullaridan foydalanmoqda.

Ma’lumki, insonlar ma’lumotlarning 83 foizini ko’rish, 11 foizini eshitish, qolgan 6 foizini esa teginish, hid va ta’m sezish a’zolari orqali qabul qiladi [7, 89–93-b.]. Ekologik huquqiy targ’ibotlar olib borish harakati DQIH formulasi bilan ifodalanishi mumkin: 1) diqqat; 2) qiziqish; 3) istak (hayajon, biror narsa qilish istagi); 4) harakat.

Umuman olganda, targ’ibot va tashviqotning ta’sirini ikkita asosiy vazifaga qisqartirish mumkin:

1. Muayyan kerakli va foydali ma’lumotlarni aholiga yetkazish.

2. Zararli axborotlardan himoya qilish bo’yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish.

Ekologik-huquqiy targ’ibot ta’sirining samaradorligi manbaning obro’si va kuchi, qiziqarli mazmuni, jozibali targ’ibot paketida yashiringan ma’lumotlar, to’g’ri tanlangan ommaviy axborot vositalari, tinglovchilar ehtiyojlari va tayyorgarligini bilish hamda muvaffaqiyatni o’rganishdan iborat.

Ekologik-huquqiy targ’ibot ta’sirining muvaffaqiyatli bo’lishi ko’plab omillarga ham bog’liq. Ulardan biri axborotni uzatishda ustuvorlikdir. Inson, birinchi navbatda, o’z fikriga mos keladigan ma’lumotni qabul qildi. Ko’pincha ijtimoiy tarmoqlardan keladi-

gan ma’lumotlar odamlarni befarq qoldiradi. Buning oldini olish uchun tashviqot mahsulotlari bir nechta ta’sir xususiyatiga ega bo’lishi kerak.

Qabul qilinayotgan targ’ibot orqali tinglovchi o’zining shaxsiy muammolarini hal qilish uchun ma’lumot qidiradi. Ma’lumot o’z hayoti va faoliyatiga taalluqli bo’lsagina unga qiziqishi mumkin.

Ekologik targ’ibot faoliyati muvaffaqiyatli bo’lishi uchun targ’ibot nutqlari jonli va ta’sirchan, targ’ibotchi yoki targ’ibot manbalaring vakolati va malakasiga ishonch bo’lishi kerak. Targ’ibot samarali bo’lishi uchun faqat ba’zi ma’lumotlarni yetkazish emas, balki odamlarni tashviqot ishlariga faol jalb etish ham zarur.

Targ’ibot qanchalik mazmunli, mantiqiy va hissiy jihatdan kuchli bo’lsa, xotirada shunchalik yaxshi mustahkamlanadi. Biroq ma’lumotlarning tabiiy hajmi tinglovchilar o’zlashtira oladigan maksimal darajasidan oshib ketmasligi lozim [8, 99–101-b].

Ekologik-huquqiy targ’ibot deganda, tabiatni buzishga qaratilgan harakatlarни zaiflashtirish, shuningdek, odamlarning ekologik e’tiqod, bilim, ko’nikmalari va ijtimoiy faolligini shakllantirish uchun aholining dunyoqarashi, yo’nalishi, xulq-atvori va kayfiyatiga ta’sir qilish tushuniladi. Mamlakatimizda bayramlar oldidan uyuştiriladigan umumxalq hasharlari yoki “Avtomobilsiz kun” kabi tadbirlar o’tkazish an’anasi shakllangan bo’lsa-da, afsuski, bu tabiatda so’f ekologik sharoit yaratish uchun yetarli emas.

Ekologik muammoni hal etishda, eng avvalo, toza hayot, atrof-muhitni asrashga munosabatni ekologik-huquqiy targ’ibot orqali o’zgartirish mumkinligini inson ongiga yetkazish lozim. Ijobiy natijalarga erishish uchun ekologik-huquqiy targ’ibot boshidanoq tinglovchilarni bilimdan motivatsiyaga olib borishi kerak. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan mamlakatimizning ekologik vaziyatini yaxshilashga qaratilgan bir qator farmon va qarorlar qabul qilingan. Fikrimizning

dalili sifatida birgina "Yashil makon" loyihasi hamda "Yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil o'sish"ni ta'minlash dasturi buning yaqqol isbotidir [9, 95-b]. Respublikamizda ushbu loyihalar bilan yashil iqtisodiyotga o'tish va yashil o'sishni ta'minlash maqsadida adliya organlari tomonidan qator targ'ibot tadbirlari o'tkazildi va aholi ekologik masalalar bo'yicha keng xabardor qilindi. Jumladan, ularda ommaviy axborot vositalari orqali "yashil" iqtisodiyot asosida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, "sof" transportni rivojlantirish, suvni tejash, o'rmonlarni kengaytirish mavzulari o'rinni oldi.

Targ'ibot orqali davlatning barqaror rivojlanish prinsipiغا muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi, lekin bir holat yildan yilga "meros" bo'lib - u ham bo'lsa, shaharlar ko'chalari o'tmoqda iflosligi, ariqlar chiqindilar bilan to'lib turishi, hisobi yuritilmagani bois daraxtlarning kesib yuborilishi odatiy holga aylangan.

Ayni paytda mamlakatimizda tadbirkorlikka keng yo'l ochilmoqda, lekin ko'cha-atroflarni obodonlashtirish ishlari ham tadbirkorlarga ma'lum muddatga ulardan tekin foydalanish maqsadida topshirilsa, muammo-ga yechim bo'lishi mumkin. Chunki ushbu maydonlar ko'kalamzorlashtiriladi, obodonlashtiriladi. Fuqarolarda loqaydlik, mas'uliyatsizlik va madaniyatsizlik kabi illatlardan voz kechish, tadbirkorlik qilish va o'zini o'zi band qilishga chorlash huquqiy targ'ibotlarning bosh maqsadi bo'lib qolaveradi. Chunki kelajak avlodga ekologik toza hududni qoldirish barchaning oldidagi insoniy burchdir.

Iqlim o'zgarishining sog'lig'imiz, oziq-ovqatimiz, uy-joyimiz, xavfsizligimizga ta'sir qilishi ham bevosita ekologik xavflar bilan bog'liq. Odamlarda iqlim o'zgarishiga nisbatan ta'sirchanlik, zaiflik ortib borayotgani, masalan, allergiya va nafas yetishmovchiligi kasalliklari ko'payayotgani barchani birdek ogohlilikka chorlashi shart. Iqlim isishi oqi-

batida kuzatiladigan qurg'oqchilik ta'sirida odamlarni ochlik xavfi kutishi aniq bo'lib bormoqda. Aholining ekologik ongi, savodxonligini rivojlantirish shu bois va ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, hozirgi kunda ekologik vaziyatning barqarorligiga olib keluvchi har bir ishimiz kelajakka qo'yilgan haqiqiy sarmoyadir. Chunki kelajak avlodga ekologik toza hudud qoldirishimiz zarur, bu, o'z navbatida davlat taraqqiyoti va millat salomatligiga bevosita ta'sir qiladi [10, 32-33-b.]

Dunyoda har soniyada 20 mingga yaqin plastik butilkalar ishlab chiqariladi va har daqiqada ularning bir millionga yaqini sotiladi. Issiq yoz kunlarida plastik butilkalarni yuz minglab axlat qutilariga tashlab yuboramiz. Biroq bu idishlarning kelajagi haqidagi o'ylamaymiz, chunki aholida ularni qayta ishlash haqida ma'lumotlar mavjud emas. Vaholanki, plastikning har bir qismi alohida qayta ishlanadi va ulardan turli mahsulotlar ishlab chiqariladi. Plastik mahsulotlarni qayta ishlashda ularni toza saqlash shuning uchun juda muhim. Qayta ishlangan qopqoqlardan stol, skameyka, axlat qutisi, idora anjomlari, maishiy kimyo mahsulotlarini qadoqlash uchun shishalar, qurilish materiallari, quvurlar tayyorlash uchun materiallar ishlab chiqarish mumkin va ular bizga uzoq vaqt xizmat qiladi. Chiqindixonaga emas, balki qayta ishlashga ketadigan har bir qopqoq ekologik targ'ibotdan iborat vazifamizni hal qilish yo'lidagi kichik bir qadamdir. Bu biz va sayyoramizga katta ziyon keltiradigan axlat miqdorini kamaytiradi, kelajak avlodlar uchun yovvoyi tabiatni barcha xilma-xilligi bilan saqlab qolishga yordam beradi.

Yaqin yillar ichida adliya organlari tomonidan olib borilgan ekologik-huquqiy targ'ibot orqali aholi, mahallalar, ta'lim muassasalari va mehnat jamoalari, tadbirkorlar orasida ekologik-huquqiy ongni shakllantirishda yaxshi ko'rsatkichlarga erishildi. Jumladan, mahallalarda obodonlashtirish, ko'ka-

lamzorlashtirish, chiqindilarni o'z vaqtida tozalash hamda transport sohasidagi toza ekologik muhitni yaratish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Jamoat joylarida obodonlashtirish, tabiatni asrash hamda "Yashil makon" loyihasi asosida ko'chatlar ekish va ularni doimiy parvarishlash orqali ekologik muhitning ancha yaxshilanishiga erishildi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Hozirgi vaqtida mamlakatimizning ekologik vaziyati hech kimni qiziqtirmaydi, desak, xato qilgan bo'lamic. Afsuski, mamlakatimiz poytaxti Toshkent ham dunyodagi eng og'ir ekologik vaziyatda qolgan va havosi notoza shaharlar orasida yuqori o'rnlardan joy olgan.

Xorijiy mamlakatlarda bu borada ekologik-huquqiy targ'ibot orqali bir qator yutuqlarga erishildi. Masalan, AQSHning ba'zi shtatlarida sayyoohlar o'rtasida olib borilgan ekologik targ'ibot ishlari tufayli o'rmon yong'inlari 50 foizga kamayishiga erishilgan.

Yevropada barcha uzoq vaqtdan beri shaharlarni ekologik toza tutishga intiladi, chiqindilarni qayta ishslash muammosiga fuqarolarning o'zi ham jiddiy yondashadi, davlatlar muqobil energiya manbalarini izlaydi, bu haqda filmlar suratga oladilar va ekologik targ'ibot olib boradi [11, 24-b].

Dunyoning eng ko'kalamzorlashtirilgan va eng toza ekologik shaharlari ro'yxati tuzilgan. "Lonely Planet" jurnalining yozishi-cha, reytingda Vena yetakchilik qilmoqda. Yirik shaharlар bir qancha mezonlarga ko'ra baholangan. Jumladan, tadqiqotchilar ko'kalamzorlashtirilgan jamoat joylari, piyodalar sayr qilishi uchun ajratilgan hududlar, havoning ifloslanganlik darajasi, qayta tiklanadigan manbalardan olinadigan energiya iste'moli, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan suv miqdori, jamoat transportidan foydalanuvchi odamlar soni, fermerlik bozorlariga ahamiyat berishgan [12].

Estoniyalik olimlar o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlari davomida atrof-muhitni asrash targ'iboti haqida qiziqarli xulosalarga kelish-

di. Ularning fikricha, aholining atrof-muhitni asrash to'g'risida tashvishlanish darajasi inson tomonidan qabul qilinadigan omma-viy axborot miqdoriga mutanosib, bu esa, o'z navbatida, ma'lumotning asosligiliga mutanosibdir [13, 1089–1094-b.].

Ekologik-huquqiy targ'ibot ishlarini olib borishda ekologik muammolarni idrok etish nafaqat bilim, balki an'analar, hayotiy tamo-yillar, tajriba, qadriyatlar bilan ham belgilanishini hisobga olish kerak. Afrika davlatlari dan birida qishloq aholisini yong'oq yetish-tirishga undashga harakat qilishdi. Bu muvaffaqiyatsizlikka uchragan, chunki yong'oq daraxtini ekish bu xalq uchun yovuz ruhlarni jalb qilish deb tushunilgan.

Ekologik-huquqiy targ'ibot samaradorligiga ko'pincha odamlar buni o'zları uchun eng foydali ekanini tushunganidan so'ng erishildi [14, 95-b.].

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi targ'ibot harakatlarining aksariyati natijasiz qoladi. Agar targ'ibot faqat ma'lum tezislari, ma'lum haqiqatlarning bayonotlari bilan cheklansa, unda samara bo'lishi dargumon [15, 20–21-b.]. Shuning uchun ham "Tabiatni asrang!" yoki "O'rmonni yong'indan himoya qiling!" kabi chaqiriqlar odamlarga hech qanday ta'sir qilmaydi va ularning e'tiboridan chetda qoladi.

Soha mutaxassislari aholining ekologik-huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir yangi innovatsion uslublarni joriy qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqib, amalda tatbiq etib kelmoqda.

Ekologik-huquqiy targ'ibotni yanada kuchaytirish maqsadida quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

- olimlar, jurnalistlar, yozuvchilar, etnograflar bilan hamkorlikni kengaytirish;
- tabiatga qarshi moyillik va stereotiplar, qarashlar va g'oyalarni o'rganish;
- turli an'analar va stereotiplar o'zaro bog'langan joylarda ekologik targ'ibotning geografik tabaqlananishi;
- malakali targ'ibotchilarni tayyorlash.

Ekologik-huquqiy targ'ibotni olib borishda turli tadqiqotlar natijalari solishtirilganda, ko'rgazmali ekologik targ'ibotga juda kam e'tibor berilgani ko'zga tashlanadi. Qo'riqxonalar hududiga kiraverishda, o'rmon va suv atrofida o'zini qanday tutish qoidalari to'g'risida ogohlantiruvchi taxtalar, ko'r-gazmalar o'rnatilmagani ma'lum bo'ldi.

Tabiiy muhitni asrashda eng ta'sirchan targ'ibot usuli televide niye va radiodir. Bir-oq ularda ham ekologik-targ'ibot ishlari yetarli darajada olib borilmayapti. Bu televide niye va radiokanallarning tijoratlashib ketgani hamda ushbu tarmoqlarda ekologik targ'ibotlarni joylashtirish uchun to'lovlarni amalga oshirish zarurligi bilan bog'liq. Ushbu to'lovlar amalda o'z vaqtida oshirilmasligi bois ekologik krizis davom etmoqda.

Xulosalar

Adliya organlari tomonidan olib borilgan ekologik-huquqiy targ'ibot natijalaridan kelib chiquvchi xulosa va takliflar quyidagicha:

- 1) AI-80 benzinidan foydalanishni kamaytirish;
- 2) katta shaharlarda og'irligi 3,5 va 12 tonnadan ortiq yuk avtomashinalarining tig'izlik eng yuqori vaqtida (ertalab soat 7:00 dan 10:00 gacha va 17:00 dan 20:00 gacha) harakatlanishini cheklash;

3) elektr transport vositalariga o'tish uchun turli imtiyozlar berish;

4) xorijiy tajribaga asoslanib (Xitoy tajribasi), yo'l tirbandligini kamaytirish uchun "toq va juft" kunlarni boshqarish qoidasini joriy etish;

5) shaharning muhim ko'chalarida avtomashinalarsiz zonalar tashkil etish;

6) jamoat transportini to'liq elektr, gaz ballonli yoqilg'iga o'tkazish;

7) sun'iy suv havzalari qurish;

8) tuproq zarralari ko'chishining oldini olish uchun har bir shahar atrofiga "Yashil belbog"lar barpo etish;

9) havoning sifatini e'lon qilib boradigan tablo va monitorlar o'rnatish.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, ekologik-huquqiy targ'ibot tadbirlaridan maqsad atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash, aholi o'rtasida atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslikdir. Shunday ekan, sog'lom inson ongli ravishda atrof-muhitga befarq bo'lishi mumkin emas. Adliya xodimlari olib borayotgan ekologik-huquqiy targ'ibotdan maqsad esa fuqarolarining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, qonunga hurmat va qonun buzilishining har qanday ko'rinishiga qarshi kurashishdir.

REFERENCES

1. Boreyko V.E. Kul'tura i massovyye kommunikatsii [Culture and mass communication]. Moscow, Nauka Publ., 1996, p. 302.
2. Aleksandrov V.Yu. Ekologicheskiye problemy avtomobil'nogo transporta [Environmental problems of automobile transport]. Novosibirsk, 1995, p. 113.
3. Kryazh I.V. Psikhosemanticheskoye issledovaniye obydennykh ekologicheskikh predstavleniy [Psychosemantic study of everyday ecological ideas]. *Questions of Psychology*, 1998, no. 1.
4. Xolmominov J.T. Ekologik tahidlarning oldini olish va ularni bartaraf etish huquqiy muammolarining ilmiy-nazariy tahlili [Scientific-theoretical analysis of legal problems of prevention and elimination of ecological threats]. Tashkent, TSUL, 2016, p. 91.
5. Gubanov N.I., Gubanov N.N. Rol' mentaliteta v preodolenii antropogennykh krizisov [The role of mentality in overcoming anthropogenic crises]. *Historical Psychology and Sociology of History*, 2013, vol. 1, pp. 166–180. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-mentaliteta-v-preodolenii-antropogennyh-krizisov>

6. Daminov A.A. Ekologik sug'urta ob'ekti va predmeti masalasi [The issue of the object and subject of ecological insurance]. *Philosophy and Law*, 2011, no. 2, pp. 9–11.
7. Nishonova N. O'quvchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalashning o'ziga xos jihatlari [Specific aspects of education of ecological culture in students]. Tashkent, *Public Education*, 2001, no. 4, pp. 89–93.
8. Abdurahimov A. Ekologik bilimlar amaliyotda [Ecological knowledge in practice]. Tashkent, *Public Education*, 1998, no. 6, pp. 99–101.
9. Yo'ldoshev H.S., Avazov Sh.M. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish asoslari [Basics of ecology and nature protection]. Tashkent, Mehnat Publ., 2003, p. 95.
10. Jurayev Y.A. Pravo i upravleniye v oblasti ispol'zovaniya i okhrany prirodnoy sredy Respublikи Uzbekistan [Law and management in the field of use and protection of the natural environment of the Republic of Uzbekistan]. Moscow, IGP, 1996, pp. 32–33.
11. Ergashev A.E. et al. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish [Ecology and nature protection]. Tashkent, Fan Publ., 2009, p. 24.
12. The world's cleanest ecological cities have been ranked. Available at: <https://www.xabar.uz/uz/xorij/dunyoning-eng-toza-ekologik-shaharlari-reytingi-tuzildi>.
13. Xamrokulova Sh.E., Allayarova S.N. Ekologik tarbiyani rivojlantirishda tadqiqotchilik ko'nikmasining ahamiyati [The importance of research skills in the development of ecological education]. *Academic Research in Educational Sciences*, 2021, vol. 2 (11), pp. 1089–1094.
14. Xolmo'minov J.T. Ekologlarning shikastlanishlarini oldini olish va ularni ilmiy bartaraf etish huquqiy muammolarining-nazariy taxlili [Theoretical analysis of the legal problems of prevention of damage to ecologists and their scientific elimination]. Tashkent, TSUL, 2016, p. 95.
15. Xudoyqulov X.J. O'qituvchi va tarbiyachilarни ekologik tarbiyaga oid targ'ibotga tayyorlash. [Preparing teachers and educators for environmental education]. Tashkent, *Public Education*, 2000, no. 4, pp. 20–21.